

**BULUNG'UR SUV OMBORIDA, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN
HOLDA, QURILISH ISHLARINI TASHKIL QILISH**

Alimov Muhammad
"TIQXMMI" MTU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada suv omborlari to'g'risida ma'lumotlar, klassifikatsiyasi va ulardagi mavjud inshootlar, ekspluatatsiya xizmatini tashkil etish, suv omboridagi inshootlar ekspluatatsiyasi, nazorat-o'chov asboblarini joylashtirish va ularni nazorat qilish, favqulodda holatlarda suv ombordan foydalanish, suv omborining ish rejimi, suvomborini samarali to'ldirish va bo'shatishni amalga oshirish, suvomborida suv muhofazasi faoliyatini yo'lga qo'yish, suvomborlaridagi inshootlar texnik holatini kuzatish, kuzatishlarning tarkibi, o'tkazish muddatlari va usullari, kuzatishlar asosida ta'mirlash-tiklash ishlarini rejalashtirish va o'tkazish qoidalari, suv omboridagi inshootlar ishonchliligi va xavfsizligini baholash kabi asosiy mavzular yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *suv, suv resurslari, soy, ko'l, suv ob`ekti, hududiy joylashuvi, band, kanal.*

**ОРГАНИЗАЦИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ РАБОТ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ НА БУЛУНГУРСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ**

Алимов Мухаммад
является владелец 2 курса МТУ «TIQXMMI».

Абстрактный: В данной статье содержится информация о водоемах, их классификация и существующие сооружения, организация службы эксплуатации, эксплуатация сооружений на водохранилище, размещение контрольно-измерительных приборов и управление ими, использование водохранилища в аварийных ситуациях, эксплуатация водохранилища. режим водохранилища, эффективное наполнение и опорожнение водохранилища, установление водоохраных мероприятий в водохранилище, контроль за техническим состоянием сооружений в водохранилищах, состав, продолжительность и методы наблюдений, планирование ремонтно-восстановительных работ на основе наблюдений и основных освещаются такие темы, как правила передачи, оценка надежности и безопасности конструкций резервуара.

Ключевые слова: *вода, водные ресурсы, ручей, озеро, водоем, территориальное расположение, плотина, канал.*

**ORGANIZATION OF CONSTRUCTION WORKS BASED ON MODERN TECHNOLOGIES
AT THE BULUNG'UR WATER RESERVOIR**

Alimov Muhammad
is a 2nd year graduate student of MTU "TIQXMMI".

Abstract: This article contains information about water reservoirs, their classification and existing facilities, organization of operation service, operation of facilities in the water reservoir, placement of control and measuring devices and their control, use of the water reservoir in emergency situations, operation of the water reservoir mode, effective filling and emptying of the reservoir, establishing water protection activities in the reservoir, monitoring the technical condition of the structures in the reservoirs, the composition, duration and methods of observations, planning repair and restoration works based on the observations and basic topics such as transfer rules, assessment of reliability and safety of reservoir structures are covered.

Key words: water, water resources, stream, lake, water body, territorial location, dam, channel.

KIRISH

Inson hayotida suv har doim muhim omillardan biri bo'lib kelgan. Shu bois qadimdan odamlar asosan daryo qirg'oqlarida istiqomat qilishgan. Ular ichimlik manbai sifatida suvdan ichishgan bo'lsa, ozuqa manbai sifatida baliq ovlaganlar hamda o'zaro suv yo'llari sifatida ham foydalanib kelganlar. O'rta Osiyoda ilk suv omborlarining yaratilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Arxeologiyani tarraqiy etishi bilan mintaqadagi yuksak madaniyatdan dalolat beruvchi suv ombori to'g'onlari irrigatsion tizimlari topildi. Sug'oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yerlarning meleorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarni o'zlashtirish, suvdan energetika va boshqa maqsadlarida foydalanish hamda suv oqimlarini rostlashda suv omborlarini tashkil etish yo'lga qo'yila boshlandi. Xozirgi kunda respublikamizda 300 ga yaqin yirik gidrotexnik inshootlar, shu jumladan 20 mlrd. m³ sig'imga ega bo'lgan 60 ta dan ortiqroq suv omborlari va sel suv omborlaridan foydalanib kelinmoqda. Respublikadagi mavjud gidrotexnika inshootlari ekspluatatsiyasi jumladan, suv omborlaridan samarali va xavfsiz foydalanish, ularga o'z vaqtida texnik qarovni amalga oshirish, o'z vaqtida ta'mirlash-tiklash va rekonstruksiya qilishga bog'liq. Bu esa gidrotexnika inshootlaridan foydalanuvchi tashkilotlar zimmasiga katta ma'suliyat yuklab, suv omborlari ekspluatatsiyasini takomillashtirishni talab qiladi. Ayniqsa 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi muhim hisoblanadi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni

modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Pirovard natijada qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojni qoplash kabi yangi masalalarni qo'ydi. Aholini 5 oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish uchun yangidan-yangi manbalarni izlab topishi, suv ta'minotini yaxshilash zaruriyati tug'iladi.

ASOSIY QISM

Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida yangi suv ombori barpo etilayotganini bilasizmi? Kun.uz muxbirlari ishlar qizg'in ketayotgan ob'ektda bo'lishib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi va ulkan qurilish maydonidan fotoreportaj uyuştirishdi.

Muhtasham ob'ekt O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 maydagi «Samarqand viloyatida Bulung'ur suv omborini qurish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 413-sonli qarori asosida, Zarafshon daryosi suv resurslaridan foydalanish va Samarqand viloyatidagi sug'oriladigan yer maydonlarini suv bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida qurilmoqda.

Ob'ekt qurilishi «Samarqandqurilishinvest» DUK buyurtmasi asosida, «UzGIP» MChJ loyihasi bilan qurilish ishlari bosh pudratchi — «O'zsuvqurilishta'minot» respublika birlashmasiga qarashli «Zarafshonmaxsussuvqurilish» DUK tomonidan amalga oshirilmoqda.

Loyihaning umumiy qiymati 386,8 milliard so'm bo'lib, ushbu mablag'ning 363,7 milliard so'mi qurilish va montaj ishlari sarflanadi. 2019 yilning mayida boshlangan qurilish ishlarini 2021 yilning yozida tugallash vazifasi qo'yilgan. Ayni paytda ishlar grafikdan ortda qolmagan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda 267 nafar ishchi, 130 dan ziyod texnika qurilish ishlariga jalgan. Ishlarni tezlashtirish, xarajatlarni qisqartirish maqsadida beton zavodi ham barpo etilgan.

Chunonchi, 31 avgust holatiga kelib 70,3 milliard so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan. Biz borgan chog'imizda suv omborining eng quyi nuqtasida suv qo'yib yuboriladigan quvurlarning montaj ishlari ketmoqda edi. Shuningdek tuproq ishlari bajarilmoqda. O'nlab samosvallarga tuproq yuklanib kelinmoqda. To'g'on osti joylarida tuproqni zinchash kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Suv ombor qurilishi hududda joylash aholi tomorqalari va dalalarida sizot suvlari chiqmaydimi, deb bergan savolimizga quruvchilar hamma narsaning hisob-kitobi olingani, sizot suvlarini qochirish maqsadida maxsus drenaj kollektorlari allaqachon qazib tayyorlab qo'yilganini ko'rsatib berishdi.

Bulung'ur suv omborining sig'imi 100 million kub metrdan, uning to'g'onining uzunligi esa 9,2 km.dan iborat bo'ladi. Qurilish asnosida 9100,0 ming metr kub tuproq ishlari, 40,5 ming metr kub beton ishlari va 0,54 ming tonna armatura va metall konstruktsiyalar o'rnatish ishlari amalga oshirish nazarda tutilgan.

Ushbu suv ombori ishga tushsa Bulung'ur, Jomboy va Payariq tumanlaridagi 35,8 ming hektar mavjud sug'oriladigan yerkarning suv ta'minoti yaxshilanadi. Shuningdek,

ushbu ob'ekt Zarafshon daryosi, boshqa yordamchi kanal va gidrotexnik tizimli inshootlarning mavsumiy oqimini tartibga soladi.

O'yaylmizki, ushbu ob'ektning Samarcand viloyatidagi suvga tashna hududlarni bog'u bo'ston qilishda, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan dalalarda hosildorlikning oshishiga hissasi katta bo'ladi.

"Samarcand viloyatida Bulung'ur suv omborini qurish" ob'ektida bajarilgan qurilish-montaj ishlari bo'yicha 2022 yilning 1 iyul holatiga bo'lgan ma'lumot

Zarafshon daryosi suv resurslaridan foydalanish va Samarcand viloyatidagi sug'oriladigan yer maydonlarining suv bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 maydag'i "Samarcand viloyatida Bulung'ur suv omborini qurish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, loyihani amalga oshirish bo'yicha: Buyurtmachi: "Samarcandsuvqurilishinvest" DM; Bosh loyihachi: "UzGIP" MChJ; Bosh pudratchi: "Zarafshonmaxsussuvqurilish" MChJ.

Loyihaning umumiyligi: 535,6 mlrd.so'm; Shu jumladan: Qurilish-montaj ishlari 508,9 mlrd.so'm; 01.01.2022 yil xolatiga bajarilgan QMI: 289,986 mlrd.so'm (57 %), (2019 yilda 98,3 mlrd.so'm, 2020 yilda 88,6 mlrd.so'm, 2021 yilda 103,086 mlrd.so'm), 2022 yil uchun ajratilgan limit QMI: 29,473 mlrd.so'm, 01.07.2022 yil xolatiga bajarilgan QMI: 15,785 mlrd.so'm. Jami qurilish boshidan bajarilgan QMI: 305,771 mlrd.so'm

Loyihaning umumiyligi parametrlari: Ish turlari, O'Ichov birligi, Jami, Sig'imi mln.m3 100,0. To'g'on uzunligi km 9,2. Tuproq ishlari ming.m3 9 800,0. Beton ishlari ming.m3 42,5. Armatura ishlari ming.tn 0,54

Bulung'ur suv omborining maqsadi: Bulung'ur, Jomboy va Payariq tumanlaridagi 35,8 ming hektar sug'oriladigan yerkarda suv bilan ta'minlaydi.

Vazifikasi: Zarafshon daryosi, shuningdek yordamchi va yordamchi ob'ektlar inshootlarining mavsumiy oqimini tartibga olish.

2022 yilning 1 iyul holatiga qurilish boshidan buyon ob'ektda (tuproq kesish, mavjud kollektor tarmoqlarini tozalash, ochiq kollektorlar tizimi qurilishi, yopiq yotiqlik drenaj tarmog'i, to'g'on ko'tarish ishlari, tezoqar inshooti, to'ldiruvchi kanal, kirish hamda chiqish kanallari, ma'muriy bino qurish ishlari bo'yicha) jami 305,771 mlrd.so'mlik yoki 60,1 foiz qurilish-montaj ishlari bajarilgan.

XULOSA

Suv omborlari - inson tomonidan barpo etilgan va boshqariladigan ob'ektlardir, lekin ularga kuchli tabiiy, ayniqsa gidrometeorologik omillar ta'sir qiladi. Shuning uchun suv omborlarini boshqarish va ishlatish tadqiqot ob'ekti texnik va tabiiy bilimlar orasida bo'lsa ham ko'proq tabiiy havzalarni eslatadi. Inson qo'lli bilan barpo etilgan bo'lsada, suv omborlari tabiatning bir bo'lagi bo'lib qolaveradi ular: muz bilan qoplanadilar, ularda ko'llarda va daryolarda mavjud barcha turdag'i o'simliklar va hayvonlar yashaydilar. Har yili yer sharida yuzlab suv omborlari quriladi va ekspluatatsiya qilish uchun topshiriladi. Daryo vodiysining landshaftini o'zgartirgan ko'plab suv omborlari borki o'zining maydoni, hajmi,

uzunligi va chuqurligi bo'yicha sayyoramizning yirik ko'llari bilan tenglasha oladi. Hamda bunday suv o'mborlarining umumiyligi maydoni o'nlab Azov dengizi akvatorialariga tengdir. Bularning hammasi insonlar tomonidan oxirgi 60-70 yil ichida barpo etilgan. Ularning qurilishi nafaqat suv ob'ektlari balki ular atrofidagi umumuiy miqdori taxminan 1,5 mln.km² ga teng maydonni tabiatini ham o'zgartirdi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki hozirgi kunda hech bo'limganda bitta suv o'mboriga ega bo'limgan daryolar deyarli qolmadi. Sayyoramizdagi suv o'mborlarining umumiyligi hajmi, o'tgan asrlar davomida 15 km³ ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu miqdor 6 ming km³ dan oshib ketdi. Ayniqsa oxirgi yillarda bu ko'rstgich jadal o'sib bormoqda. So'ngi yillar davomida ularning hajmi 10 barobar, Lotin Amerikasida 35 barobar, Afrikada 60 barobar, Osiyoda esa 90 barobar oshdi. Ularning umumiyligi miqdori (soni) 30 mingdan, suv yuzasining maydoni 400 ming km² dan ortiq. Ko'plab katta daryolar xususan Volga, Angara, Missouri, Kolorado, Parana va h.lar suv o'mborlarining kaskadlariga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Axmedov. Suv xo'jaligi qurilishini tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish. Darslik."O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashrèti. Toshkent – 2010. 268 b.
2. "Gidrotexnika ishlarini bajarish.Suv xo'jaligi qurilishini tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish" fani o'quv-uslubiy elektron moduli.
3. S.Vafoev, N.Dauletov Melioratsiya va qurilish mfashinalaridan foydalanish va texnik servis T. "Taffakur Bosoni" 2013 -264 b.
4. G'.Yo.Yormatov, O.R. Yuldashev, A.L. Hamraeva. Haёт faoliyati xavfsizligi. Darslik. "Aloqachi " nashrèti. Toshkent-2009. 348 b.
5. M.V.Muxamedjanova, F.X.Sharafitdinova. Oxrana i rasional'noe ispol'zovanie prirodnyx resursov Uzbekistana. Tashkent, 1989 g. 287 s